



KORPORATIV NIZOLAR: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA IQTISODIY-HUQUQIY TAHLIL

Imomov Otabek Sodiqovich

O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni yetakchi inspektori oimomov_ne@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16794507>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Avgust 2025 yil
Ma'qullandi: 07- Avgust 2025 yil
Nashr qilindi: 11- Avgust 2025 yil

KEYWORDS

korporativ nizo, ta'sischi, mulkdor, nizo, iqtisodiy sud.

ABSTRACT

Ushbu maqolada korporativ nizolarning yurisdiksiyasi, tushunchasi va mazmuni hamda ularni hal etishdagi xorijiy tajribalarining iqtisodiy tomonlari tahlil qilinadi.

Korporativ nizolarning O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy taraflari

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bozor iqtisodiyotiga o'tish, xususiylashtirish, chet el investitsiyalarining jalb qilinishi va korporativ boshqaruv tizimining rivojlanishi korxonalarda yangi imkoniyatlar bilan birga, qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda korporativ nizolar sonining ortishi, ularning murakkab shaklga ega bo'lishi va bu nizolarning iqtisodiyotga ta'siri dolzarb masalaga aylangan. Korporativ nizolar – bu aksiyadorlar, rahbariyat, kompaniya manfaatdor tomonlari o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy, iqtisodiy va boshqaruv bilan bog'liq ziddiyatlardir. Bu nizolar O'zbekistonda sarmoyaviy muhitdan tortib to makroiqtisodiy ko'rsatkichlargacha bo'lgan ko'plab yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, korporativ nizolar investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasi so'nggi yillarda faol bo'lishiga qaramasdan, korporativ nizolar ushbu jarayonda sezilarli to'siq bo'lib qolmoqda. Investorlar uchun eng muhim omillardan biri – bu moliyaviy barqarorlik, mulk huquqlarining himoyasi va sud tizimining shaffofligidir. Ammo ko'plab hollarda xorijiy investorlar korporativ nizolarga duch kelgan. Masalan, «Uzdunrobta» (Rossiyaning MTS sho'ba korxonasi) bilan bog'liq 2012-yilgi mojaroda kompaniyaning O'zbekistondagi aktivlari musodara qilinib, 1 milliard dollardan ortiq qiymatdagi mulk davlat tasarrufiga o'tkazilgan (Wikipedia, 2024). Ushbu voqea xalqaro miqyosda katta rezonans uyg'otib, ko'plab investorlarning O'zbekistondagi investitsiyaviy xavfsizlik borasidagi ishonchini susaytirdi. BMT, Jahon banki va Transparency International tashkilotlari O'zbekistonda korporativ xavf-xatar darajasining yuqoriligini bir necha marotaba ta'kidlab o'tgan.

Ikkinchidan, korporativ nizolar kompaniya ichki faoliyatining izdan chiqishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Korporativ nizolar mavjud bo'lgan kompaniyalarda resurslar, jumladan, moliyaviy va inson kapitali, ishlab chiqarish jarayonlaridan chetlashtirilib, sud ishlari, ichki tekshiruvlar, huquqshunoslar xizmatiga yo'naltiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga, foyda miqdorining kamayishiga olib keladi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari bu jarayonda eng ko'p zarar ko'radigan qatlam hisoblanadi. Zero, bunday korxonalar moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun katta resurslarga ega emas. Bundan tashqari, nizolarni huquqiy yo'l bilan hal qilishga doir bilim va tajriba yetishmasligi ularga yanada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Raqobatbardoshlik pastlaydi, mijozlar va biznes hamkorlar bilan munosabatlar yomonlashadi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

Uchinchidan, korporativ nizolar makroiqtisodiy darajadagi oqibatlariga ham olib keladi.

Davlat byudjeti darajasida qaralganda, yirik kompaniyalarning faoliyati to'xtab qolishi yoki bankrotga uchrashi natijasida soliq tushumlari kamayadi. Bu esa ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda muammolar keltirib chiqaradi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi YaIMga nisbatan 2,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkichni 3,5 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda (Coface Country Risk Files, 2024). Ammo, agar korporativ nizolar kamaytirilmasa va investorlar huquqlari yetarli darajada himoya qilinmasa, bu rejalar amalga oshmasligi mumkin. Bundan tashqari, korporativ nizolar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy beqarorlik – ya'ni ishsizlik, ish haqlarning kechikishi, jamiyatdagi norozilik kayfiyati – iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holatlar iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi va siyosiy beqarorlikka ham sabab bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – bu sud va arbitraj tizimining bosim ostida qolishi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarining ish hajmi ortib borayotgan bo'lsa- da, ba'zi korporativ nizolar yillar davomida hal etilmayotgani tizimning ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Investorlar uchun bu juda muhim signal bo'lib, sud qarorlarining tezkorligi va xolisligiga ishonchni kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida korporativ nizolar nafaqat alohida kompaniyalar darajasida, balki butun iqtisodiyot uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Ular sarmoyaviy muhitni yomonlashtiradi, korxonalar faoliyatining barqarorligiga putur yetkazadi, ishsizlik va ijtimoiy norozilikni kuchaytiradi hamda davlat byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu muammoni chuqur o'rganish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, huquqiy asoslarni kuchaytirish, mustaqil va shaffof arbitraj tizimini yaratish zarurdir. Bularning barchasi O'zbekiston iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, iqtisodiy sudlar iqtisodiy munosabatlar sohasida adolatni ta'minlaydi. Bu huquqiy munosabatlar sohasi keng ko'lamni qamrab oladi va iqtisodiy sudlar yurisdiksiyasiga kiradi [1].

•Dastlab quyidagi savol yuzaga keladi: “Qanday ishlar iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi, va qandaylari ko'rib chiqilmaydi?” Ushbu savolga javob O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 25- moddasida batafsil bayon etilgan. Mazkur norma asosida, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlariga quyidagi ishlar tegishli hisoblanadi:

•yuridik shaxslar va qonun doirasida yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar o'rtasidagi fuqarolik, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy nizolar;

•yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiy sohadagi huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlashga doir ishlar;

- bankrotlik ishlari;
- arbitraj protsessiga doir ishlar;
- mehnat nizolaridan tashqari korporativ nizolar;
- investitsion nizolar;
- raqobatga oid nizolar;
- xorijiy sud va arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha ishlar [2].

“Qanday nizolar korporativ nizo deb e'tirof etiladi va ular nima uchun shunday ataladi?”

Oddiy qilib aytganda, bu – ma'lum bir korporatsiya, tashkilot yoki aniqrog'i yuridik shaxs ichida yuzaga kelgan tortishuvli huquqiy munosabatlardir [3].

Avvalo, “yuridik shaxs” tushunchasiga to'xtalish lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, “yuridik shaxs” – alohida mulkka ega bo'lgan, ushbu mulk asosida o'z majburiyatlari uchun javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni egallashi va amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan tashkilotdir [4].

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, yuridik shaxslar quyidagicha tasniflanadi: tijorat tashkilotlari (asosiy maqsadi foyda olish bo'lgan tashkilotlar) va notijorat tashkilotlari (foйда olishni asosiy maqsad qilib qo'ygan emas) [5].

Shundan kelib chiqib, korporativ nizolar faqat tijorat korxonalarida, kompaniyalarda yuzaga keladigan nizolar emas, balki notijorat tashkilotlar doirasida ham yuzaga kelishi mumkin. Agar ushbu huquqiy munosabatlar korporativ huquq bilan tartibga solinsa, ular ham korporativ nizolar qatoriga kiradi [6].

Ta'kidlash lozimki, bir tashkilot doirasida yuzaga kelgan bo'lsa ham, xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat nizosi korporativ nizo hisoblanmaydi [7]. Shu sababli bu kabi nizolar iqtisodiy sudlar yurisdiksiyasiga emas, balki fuqarolik sudlariga tegishli hisoblanadi.

Amaliyotda ko'pincha korporativ nizolarning “sub'yektlari” – bu yuridik shaxs tashkil etgan shaxslar, ya'ni ta'sischilar, mulkdorlar, aksiyadorlar, rahbarlar va boshqa shaxslar hisoblanadi. Bu nizolarning asosiy xususiyati – bitta yuridik shaxs doirasida rivojlanishidir [8].

Aslida, yuridik shaxs ta'sischilari (ishtirokchilari) o'rtasida yuzaga kelgan korporativ nizo, odatda, boshqaruv, aktivlardan foydalanish, shuningdek tashkilotning ichki va tashqi faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalarda jiddiy qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatadi [9].

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 30-moddasida korporativ nizolar bo'yicha ishlar aniq ko'rsatilgan. Xususan, korporativ nizolar quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:

- yuridik shaxsni tuzish, qayta tashkil etish va tugatish bilan bog'liq nizolar [10];
- aksiyalar, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlar, xo'jalik jamiyatlari va sherikliklar ulushlari, kooperativlar a'zolarining ulushlari bilan bog'liq egalik, ushbu huquqlarning cheklanishi va ular bilan bog'liq huquqlarning amalga oshirishiga oid nizolar (meros huquqi bo'yicha yoki er-xotinlar o'rtasidagi umumiy mulkni bo'lishda yuzaga keladigan nizolar bundan mustasno).

•yuridik shaxs ishtirokchilari (ta'sischi, a'zolari) tomonidan yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilgan bitimlarning haqiqiy emas deb topilishi va (yoki) bunday bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi da'volar bo'yicha nizolar;

•qimmatli qog'ozlar chiqarilishi bilan bog'liq nizolar, shu jumladan emitent boshqaruv organlarining qarorlarini, aksiyalarni joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimlarni, chiqarilgan (qo'shimcha chiqarilgan) aksiyalar bo'yicha hisobotlarni (xabarnomalarni) rad etish to'g'risidagi nizolar [11];

•qimmatli qog'ozlar nominal egalari faoliyati natijasida yuzaga kelgan nizolar, ya'ni aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek joylashtirish va (yoki) muomalaga chiqarish munosabati bilan qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq nizolar;

•yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish bo'yicha nizolar;

•yuridik shaxs boshqaruv organlari qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi da'volar.

Shu o'rinda o'rinni savol tug'iladi: "Nega bizga korporativ nizolar kerak, bular kimga kerak?" Asosan, bunday nizolar tashkilot ta'sischi va ishtirokchilariga zarur. Nega? Chunki tashkilotni boshqarishdagi harakatlarning izchilligi — bu korporativ munosabatlarning mohiyatini tashkil etadi. Korporativ huquqiy munosabatlarning yuzaga kelish sabablari orasida ta'sischi o'zaro tuzgan kelishuvlar, mulkni begonalashtirish yoki orttirish bilan bog'liq qarorlar kiradi¹². Tashkilot ishtirokchilaridan birining manfaatlari buzilishi, masalan, mulkning chiqib ketishi yoki uning qiymati sun'iy tarzda pasaytirilishi, bu ishtirokchining, hattoki korporatsiyaning o'zining iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Masalan, korxonaning logistika yoki ishlab chiqarish zanjiri buzilishi, mulk qiymatining bozor bahosiga nisbatan ancha past baholanishi yoki haddan tashqari qimmat narxda xarid qilinishi – bularning barchasi korporativ nizo yuzaga kelishiga olib keladi. Bundan tashqari, yirik bitimlarni tuzishda ta'sischi olinmasdan tuzilgan bitimlar, mulkning g'oyib bo'lishiga olib kelgan harakatlar, tashkilot faoliyati bo'yicha noto'g'ri yoki kechiktirilgan hisobotlar – bularning barchasi nizoga sabab bo'ladi. Yana bir misol – yuridik shaxsni tugatish yoki qayta tashkil etish bo'yicha qaror ishtirokchilardan birining manfaatlarini inobatga olmagan holda qabul qilingan bo'lsa, u bu jarayonga ta'sir o'tkazish imkonidan mahrum bo'ladi. Bunday holatlar majmuan korporativ huquqiy munosabatlarni tashkil etadi, bu yerda tashkilot ta'sischi va ishtirokchilari tashkilotning iqtisodiy va huquqiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Shuningdek, tashkilot rahbari tomonidan mulkka, tashkilot obro'siga va ishtirokchilarga ehtiyotsizlik, halollikdan chekinish yoki zararli harakatlar orqali yetkazilgan zarar ham korporativ nizolar doirasida ko'riladi. Korporativ huquq normalari aynan ana shunday nizolarni tartibga soladi va ularni to'g'ri hal qilish iqtisodiy sudlarning vakolatiga kiradi [12].

Shu asosda quyidagicha xulosa qilish mumkin: tashkilot nomidan qaror qabul qiluvchi yoki qarorlar qabul qilishga ta'sir o'tkaza oladigan rahbarlar, ta'sischi va boshqa mas'ul shaxslar, o'z harakatlarida tashkilot manfaatlaridan kelib chiqib, oqilona va ehtiyotkorona yo'l tutishlari, barcha hujjatlarni belgilangan tartibda yuritishlari, harakatlarning tashkilot nizomi va qonun doirasida bo'lishini ta'minlashlari shart.

Korporativ nizolar ko'pincha tashkilot a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat yetishmasligidan darak beradi. Bunday nizo, aslida, tashkilotning asosiy maqsadiga birgalikda erishish yo'lida konstruktiv muloqot yurita olmaslik natijasidir [13].

Sir emas, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish va erkin iqtisodiy sub'yektlarning vujudga kelishi bilan birga, xorijiy tajriba, qonunchilik va uning amaliyotini chuqur o'rganish va uni O'zbekiston iqtisodiyotiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, korporativ huquq sohasidagi nizolarni tartibga solish yo'nalishi yildan-yilga kengayib, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [14].

Globalashuv davrida korporativ huquq sohasi bir qator tub o'zgarishlarga uchradi. Xususan, rivojlangan davlatlarda bu soha va unga oid nizolar tubdan o'zgardi. Bu borada AQSh va Buyuk Britaniya, Germaniya tajribasini o'rganish juda qiziqarli. Ma'lumki, zamonaviy korporativ huquqning asoschisi deb Buyuk Britaniya tan olinadi. O'zbekiston qonunchiligida ham ingliz huquq tizimidan olingan atamalarga ko'p uchraymiz, masalan: "korxonalarni qo'shib yuborish" va "birlashtirish" (mergers and acquisitions) [15].

KORPORATIV NIZOLARNI HAL ETISHDAGI XORIJIY TAJRIBALAR: IQTISODIY TOMONLAR

Korporativ nizolar kompaniya boshqaruvchilari, aksiyadorlar, ta'rischilar yoki boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan kelib chiqadi. Bunday nizolarni hal qilish usullari turli mamlakatlarda farq qiladi va ular iqtisodiy jarayonlarga, jumladan, kapitalning samarali taqsimlanishi, kompaniyaning o'sishi, bozor raqobati va investitsiya muhiti kabi omillarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy tajribalar, ayniqsa, rivojlangan iqtisodiy tizimlar orqali ko'rsatilgan korporativ nizolarni hal etish usullari, O'zbekistonning korporativ nizolarni boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada, korporativ nizolarni hal etishda iqtisodiy yondashuvlarga e'tibor berish, xorijiy amaliyotlar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish maqsad qilinadi. AQSh: Korporativ nizolar va ularning iqtisodiy ta'siri AQSh iqtisodiyotida korporativ nizolarni hal etish juda keng tarqalgan va rivojlangan mexanizmlar bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonlar ko'pincha bozor raqobatini ta'minlash va sarmoyadorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. AQShda korporativ nizolarni hal qilishda quyidagi muhim iqtisodiy omillar o'rin tutadi:

Arbitraj va sud tizimi:

Arbitraj ko'plab kompaniyalar uchun nizo hal qilishning eng tez va arzon usulidir. Arbitraj sud jarayonlariga qaraganda ancha qisqa muddatda natija beradi va ko'plab hollarda ishtirokchilarga o'z manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi. AQShda korporativ arbitrajni 2021 yilda 3000 dan ortiq kompaniya qo'llagan [16].

Sud tizimi orqali korporativ nizolarni hal etish ko'proq vaqt va mablag' talab qiladi, lekin ba'zi hollarda sud qarorlarining iqtisodiy ta'siri katta bo'ladi. Masalan, AQShda eng katta korporativ nizo — Microsoft va Antitrust bo'yicha 1998 yilda sodir bo'lgan nizo, Microsoft kompaniyasining bozorni monopoliyalashuvga olib kelishi natijasida, sud orqali kompaniyaga 1.2 milliard dollar jarima solingan.

Iqtisodiy ta'sir:

Sarmoya oqimi: AQShda korporativ nizolarni hal qilish uchun arzon va tezkor mexanizmlar mavjud bo'lishi, sarmoyadorlarga kompaniyaga investitsiya kiritish bo'yicha ishonchni oshiradi. Bu esa kapital oqimini kengaytiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi [17].

Monopoliyalashuvning oldini olish: Antitrust qonunlarining kuchli ta'siri kompaniyalarning bozorni monopoliyalashishiga yo'l qo'ymaydi. Bunday nizolarni hal qilish

orqali raqobat muhitini saqlash va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga erishiladi. Buyuk Britaniya: Korporativ nizolarni yuridik va iqtisodiy tizimda hal etish

Buyuk Britaniyada korporativ nizolarni hal etish juda aniq va tartibga solingan. Companies Court (Kompaniyalar sudi) orqali aksiyadorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish samarali ishlatiladi. Bunday tizimning iqtisodiy ta'siri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Iqtisodiy Raqobatni Ta'minlash:

Buyuk Britaniyada korporativ nizolarni hal qilish orqali kompaniyalar o'rtasidagi raqobatni ta'minlash va monopoliyalashuvga qarshi kurashish imkoniyati mavjud. Bu orqali bozor raqobatining saqlanishi, shuningdek, yangi sarmoyalar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatlari yaratildi.

Sarmoya va kapitalning o'zaro ishlashining ta'minlanishi:

Arbitrajning rivojlanishi kompaniyalar uchun yuqori darajadagi iqtisodiy samaradorlikka olib keldi. 2021 yilda Buyuk Britaniyada 4000 dan ortiq arbitraj ishlarini hal qilish orqali, bozor ishtirokchilariga yirik sarmoyalar kiritishga imkon yaratildi [18]. Korporativ boshqaruvning yanada shaffofligi aksiyadorlarning kompaniyaga ishonchini oshiradi. Bu esa sarmoyalarni jalb qilish va kompaniya aktivlarining qiymatini oshirishga yordam beradi.

Buyuk Britaniya kompaniyalari uchun derivativ da'vo (aksiyadorlarning kompaniyaga zarar yetkazgan direktorlar yoki boshqaruvchilarga qarshi sudga murojaat qilish) usulining qo'llanilishi, kompaniyaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. 2021 yil uchun, Buyuk Britaniyada bunday da'volar orqali yirik kompaniyalar 2,5 milliard dollarga yaqin zararni tiklashga muvaffaq bo'ldi [19].

Germaniya: Korporativ nizolarni hal etish va iqtisodiy samaradorlik

Germaniyada korporativ nizolarni hal qilishda kompaniya ichki nizolarni hal qilish tizimi va arbitraj keng tarqalgan. Germaniya iqtisodiy tizimi ko'pincha ishlab chiqarish va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan, shuning uchun kompaniyalar o'rtasidagi nizolarni hal qilishning iqtisodiy ta'siri katta.

Korporativ boshqaruv:

Germaniya korporativ boshqaruvining yuqori darajada tartibga solinishi va aksiyadorlar yig'ilishining muhim ahamiyatga ega bo'lishi kompaniyalarning samarali faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu orqali korporatsiya menejerlari o'z faoliyatini yaxshilashga, aksiyadorlar esa kompaniyaga sarmoya kiritishda yanada ishonchli bo'ladilar [20].

Iqtisodiy rivojlanishga ta'siri:

Korporativ arbitraj tizimi orqali yirik va o'rta kompaniyalar o'rtasidagi nizolarni hal qilishning samaradorligi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Germaniyada 2020 yil oxirida korporativ arbitraj orqali 2000 dan ortiq nizo hal qilingan bo'lib, bu jarayonlarning natijasi kompaniyalar o'rtasida o'zaro ishonchni oshirdi va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qildi [21].

Germaniyada kompaniyalar uchun boshqaruv tizimining shaffofligi va tartibga solinishi korporativ nizolarni hal qilishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa kompaniyalar faoliyatining o'sishiga, innovatsion yechimlarga yo'l ochadi.

Korporativ nizolarni hal etishda xorijiy tajribalar va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri

O'zbekistonning iqtisodiy tizimida korporativ nizolarni hal qilish tizimi hamda uning iqtisodiy ta'siri haqida xorijiy tajribalardan foydalanish mumkin. O'zbekistonda korporativ nizolarni hal qilishda yuridik tizim va boshqaruvni takomillashtirish zarur. Shu maqsadda:

Arbitraj mexanizmlarini rivojlantirish: AQSh va Buyuk Britaniyadagi kabi, O'zbekistonda ham arbitraj tizimini rivojlantirish, kapital oqimini kengaytirishga va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga yordam beradi.

Korporativ boshqaruvni takomillashtirish: Aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, kompaniyalar o'rtasidagi raqobatni ta'minlash va monopoliyalashuvning oldini olish iqtisodiy o'sish uchun zarur.

Xulosa

Korporativ nizolarni hal etishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarini tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarga diqqatni qaratish zaruriyatini ko'rsatadi. Ushbu nizolar iqtisodiyotning turli qatlamlariga, jumladan, investorlar, kompaniyalar va davlatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday nizolarni hal etishda, to'g'ri mexanizmlar va amaliyotlar, shuningdek, ularni tartibga soladigan mustahkam huquqiy asoslar yaratish zarurati aniq bo'ladi.

Korporativ nizolarni hal qilish, faqat yuridik shaxslar va ularning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun emas, balki iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash uchun ham muhimdir. O'zbekiston kabi mamlakatlarda, aholining ishsizlik darajasi, investitsiya muhiti va makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari korporativ nizolarni hal qilishning samarali tizimi bilan bevosita bog'liq. Nizolarni samarali hal etish kompaniyalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardosh bozor muhitini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun korporativ nizolarni hal qilishda zamonaviy yuridik va iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish zarur. Xususan, iqtisodiy sudlar va arbitraj tizimining mustahkamlanishi, investorlar huquqlarini himoya qilish, korporativ boshqaruvni shaffoflashtirish va sud tizimidagi ishonchni oshirish kabi qadamlar zarur. Arbitraj tizimining kengayishi, korporativ nizolarni tezroq va arzonroq hal qilish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va investitsion muhitning yaxshilanishiga olib keladi. Xorijiy tajribalarning o'rganilishi, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribalarini tahlil qilish, O'zbekiston qonunchiligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tajribalarda, masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada korporativ nizolarni hal etish tizimi juda rivojlangan va bozor raqobatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. AQShda arbitraj jarayonlari orqali kompaniyalar nizo hal qilishni tez va samarali amalga oshiradilar, bu esa sarmoyadorlarga ishonchni oshiradi va kapital oqimini kengaytiradi. Buyuk Britaniyada esa, kompaniyalar sudi orqali aksiyadorlar o'rtasidagi nizolar samarali hal qilinadi va shu orqali bozor raqobatining saqlanishi ta'minlanadi. Germaniya tizimida esa, korporativ nizolarni hal etish yuqori darajada tartibga solingan va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan.

1.Korporativ boshqaruvni takomillashtirish: Kompaniyalar ichki nizolarni hal qilish va boshqaruvni samarali tashkil etish uchun korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish zarur. O'zbekiston bozorida korporativ boshqaruv tizimining kuchaytirilishi, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

2. Huquqiy tizimni isloh qilish: Iqtisodiy sudlar va arbitraj tizimining samaradorligini oshirish, ularni yanada shaffof va xolis qilish kerak. Bu tizimlar investorlarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, korporativ nizolarni tez va samarali hal etishda muhim o'rin tutadi.

3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: O'zbekistonning investitsiya muhitini yaxshilash uchun, korporativ nizolarni hal etish tizimining shaffof va adolatli bo'lishi talab etiladi. Shunday qilib, xorijiy investorlarning ishonchi oshadi va ular mamlakat iqtisodiyotiga ko'proq sarmoya kiritishga tayyor bo'ladi.

4. Korruptsiya va noxolis qarorlar bilan kurashish: Korruptsiyani kamaytirish va sud tizimidagi noxolis qarorlarga qarshi kurashish, o'z navbatida, bozorni yanada shaffof va barqaror qiladi. Bu esa korporativ nizolarni hal qilish jarayonini soddalashtiradi va davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Korporativ nizolarni samarali hal etish O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda va sarmoyaviy muhitni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tajribalarni o'rganish, iqtisodiy va huquqiy tizimlarni takomillashtirish, sud va arbitraj tizimlarining samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni rivojlantirish orqali bu nizolarni boshqarish tizimini takomillashtirish mumkin. O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi va barqarorligi uchun, korporativ nizolarni hal qilishni yanada samarali va ishonchli qilish zarur. Bu nafaqat biznesning rivojlanishiga, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Baryshova M. V. va boshqalar. Ijtimoiy tadbirkorlik: ilmiy tadqiqotlar va amaliyot. – 2019.
2. Ibratova F. Buzilgan tadbirkorlik sub'yektining bankrotligi: muammolar va yechimlar //Norvegiyada xalqaro ilmiy rivojlanish jurnali. – 2021. – №. 2021. – B. 45.
3. Frolovskiy N. G. Korporativ nizoning tushunchasi //Rossiya qonunlari: tajriba, tahlil, amaliyot. – 2010. – №. 6. – B. 11-16.
4. Ibratova F. B. Birinchi tadbirkor yoki jismoniy shaxsning bankrotligi va individual tadbirkorlik maqomini yo'qotgan holatdagi huquqiy oqibatlar //Polsha ilmiy jurnali. – 2021. – №. 38-2. – B. 20-24.
5. Dovlatova G. P. va boshqalar. Iqtisodiyot, boshqaruv va biznes sohasidagi innovatsiyalar, tendensiyalar va muammolar. – 2021.
6. Ibratova F. Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha prokuror ishtiroki.
7. Ibratova F. B. Yuridik shaxs maqomiga ega tadbirkorlik sub'yektlari uchun bankrotlik protseduralarining kontseptsiyasi va xususiyatlari //O'rta Evropa ilmiy jurnali. – 2022. – T. 20. – B. 143-147.
8. Esenbekova P., Ibratova F., Rakhimkulova L. Jismoniy shaxsning bankrotligi yoki individual tadbirkorlik maqomini yo'qotgan shaxsning fuqarolik-huquqiy muammolari //Biologik fanlar. – 2021. – №. 38-2. – B. 20-24.
9. Boldyrev V. A. Korporativ munosabatlar va korporativ nizolar //Yurist. – 2013. – №. 16. – B. 31-33.
10. Esenbekova F. T. va boshqalar. Dunyo kelishuvi iqtisodiy sud tomonidan tasdiqlanishining xususiyatlari: amaliyot va nazariya //Xalqaro professional fanlar jurnali. – 2021. – №. 5. – B. 90-96.

11. Laptev V. A. Korporativ nizolar tushunchasi. "Korporativ nizolar" va "korporativ mojar", "korporativ qo'shilish" va "korporativ qo'zg'olon" tushunchalarini ajratish // Arbitraj va fuqarolik jarayoni. – 2010. – №. 9. – B. 28- 32.
12. Ibratova F. B. va boshqalar. Zamonaviy yuridik tizimlarning xususiyatlari: holatlar va to'qnashuvlar. – 2017.
13. Uksusova E. E. "Korporativ nizolar" kategoriyasi arbitraj protsessual qonunchiligida: qo'llashdagi muammolar // Rossiya qonunlari: tajriba, tahlil, amaliyot. – 2012. – №. 1. – B.
14. Ибратова Ф. Б. Dunyo kelishuvining huquqiy muammolari: O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sudlarida bankrotlik ishlarini ko'rib chiqishda // Zamonaviy dunyoda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari. – 2019. – B. 163-170.
15. Андреева А. Р. Korporativ nizolarni huquqiy tartibga solish chet el mamlakatlarida (Buyuk Britaniya va AQSH misolida) // Yurisprudensiya. – 2010. – T. 20. – № 4. – B. 127-132.
16. Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). A Survey of Corporate Governance. *The Journal of Finance*, 52(2), 737–783.
17. Cox, J. D., & Hazen, T. L. (2017). *Business Organizations: Cases, Materials, and Problems* (9th ed.). West Academic Publishing.
18. Davies, P. L. (2010). *Gower's Principles of Modern Company Law* (9th ed.). Sweet & Maxwell.
19. Kershaw, D. (2012). *Company Law in Context: Text and Materials*. Oxford University Press.
20. Hopt, K. (2014). *German Corporate Governance: A Legal and Economic Analysis*. Cambridge University Press.
21. Buxbaum, H. & Seibt, S. (2006). Corporate Law and Governance in Germany: An Overview. *The University of Chicago Law Review*, 73(4), 1093- 1117.

INNOVATIVE
ACADEMY